

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA-MAXSUS TALLIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika-matematika fakulteti

Infarmatika o`qitish metodikasi yo`nalishi

O'ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH
QONUNLARI

mavzusidagi

REFERAT

Bajardi: 2 IO`M1 guruhi talabasi Mamirjonov Ibrohim

Qabul qildi: Samatov Dilshodbek

Mavzu: O'ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH QONUNLARI

Reja:

1. Dialektikaning tarixiy shaklini yaratishda
2. Me'yor tushunchasi
3. Dialektikaning asosiy qonunlari

Axborot sivilizasiyasi davriga qadam qo'yayotgan hozirgi zamon kishisi uchun jadal sur'atlarda o'zgarayotgan dunyo xaqidagi tasavvur uning dunyoqarashining ajralmas tarkibiy qismidir. Ammo rivojlanayotgan dunyoning yaxlit nazariy obrazini yaratish – og'ir va mashaqqatli vazifa. Uni yechishning falsafiy yo'li ikki yarim ming yil muqaddam boshlangan bo'lib, shundan beri o'tgan davr mobaynida rivojlanish falsafasi shakllangan va bosqichma-bosqich atroflicha ishlab chiqilgan. Falsafaning mazkur bo'limi rivojlanish muammosini turli nuqtai nazarlardan o'rganuvchi konsepsiyalarni o'z ichiga oladi. Ularning orasida dialektika, metafizika va sinergetika aloxida o'rin egallaydi.

Ularning ayniqsa keng e'tirof etilgani va mufassal ishlab chiqilgani dialektikadir. Shu sababli bu bo'limda unga asosiy e'tibor qaratiladi. Dialektikani bilish, uning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalaridan ijodiy foydalanish xar qanday soxa mutaxassisi aniq dunyoqarashi va metodologik intizomining muxim sharti xisoblanadi. Dialektika nima, uning mazmuni nimadan iborat, rivojlanishning dialektikaga muqobil qanday konsepsiyalari mavjud Mazkur bo'limning maqsadi ayni shu savollarga javob berishdan iborat. Dialektikaning tarixiy shakllari va xususiyatlari. "Dialektika" (yunon. dialektike - suxbat qurish san'ati) so'zining "dialog" (yunon. dialogos - ikki yoki bir nechta suxbatdoshlar so'zlashuvi) so'zi bilan umumiy jixatlari bisyor. Dastlab dialektika baxslashish, munozara qilish san'ati sifatida tushunilgan, bunda fikrlar, qarashlar qarama-qarshiligi vositasida qaqiqatning tagiga yetish max

sadida muammoni o'zaro manfaatdor muxokama qilishga qaratilgan munozara nazarda tutilgan. Dialektik - bu savol berish va javob qaytarishga usta odam, deb xisoblangan. Keyinchalik qadimgi mutafakkirlar ziddiyatlilik va o'zgaruvchanlik fikr-muloxazalardagina emas, balki real borliqda xam mavjud ekanligini payg'aganlar. Bu faktning tagiga yetgan ilk mutafakkirlardan biri efeslik Geraklit bo'lgan. U dunyoni "jonli olov" yoki "ikki marta kirish" mumkin bo'lmagan daryo oqimi sifatida tasavvur qilgan. xarakatchan dunyoda vaqt o'tishi bilan xamma narsa o'zining dastlabki shakl-shamoyilini yo'qotadi va asta-sekin o'zining qarama-qarshiligiga o'tadi: xo'l narsa quriydi, quruq narsa esa nam tortadi; bir narsa boshqa narsaga: sovuq issiqqa, tirik

o'likka o'tadi. Bu muloxazalarda hozirgi talqindagi dialektikaning asoslari mujassamlashgan. Shu sababli dialektikaning tarixan birinchi shakli qadimgi faylasuflarning stixiyali dialektikasidir. (Bu borliq va bilishning jarayonlar moxiyatini anglab yetishga asoslanmagan sodda dialektikasidir. O'rta asrlarda metafizika falsafadan dialektikani siqib chiqargan. Natijada dialektika odamlar ongiga diniy dunyoqarashni singdirish va mustaxkamlash uchun xukmron sinflar faol foydalangan sofistika va sxolastikaga aylangan. Metafizika unsurlarini o'z ichiga olgan dialektikaga qaytish Yangi davr falsafasi (Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Deni Didro va b.)da yuz bergan. Shunga qaramaydialektikaning eng yaxlit konsepsiyasini klassik nemis falsafasida Georg Hegel ta'riflagan. Bu konsepsiya dialektikaning ikkinchi shakli deb ataladi. Hegel ilk bor dunyoni quyidan oliyga qarab boruvchi umumiy rivojlanish jarayoni sifatida tasvirlagan, rivojlanish manbai - qarama-qarshiliklar kurashini ko'rsatib bergan, dialektikaning asosiy qonunlari va kategoriyalarini ta'riflagan. Ammo

Gegel dialektikasi idealistik xususiyat kasb etgan. Dialektikaning ikkinchi tarixiy shakli idealistik dialektikaning asosini ob'ektiv borliq emas, balki uni aks ettiruvchi tafakkur xizmat qilgan. Bu nazariya chuqur dialektika g'oyalari: geologiyaga tatbi'an rivojlanish nazariyasi (Ch.Loyel), Lamarkning evolyusion g'oyalari, Kant - Laplas kosmologik oyalari va boshqalar ilgari surilgan tabiatshunoslik asoslariga zid bo'lgan. Gegel dialektikasi dialektikaning navbatdagi shakli vujudga kelishiga zamin xozirlagan. Nemis faylasuflari Karl Marks va Fridrix Engels bu zaminga tayangan xolda yangi qadamni tashlash - materializmni dialektik mantiq bilan bog'lashga xarakat qilganlar. Buning natijasi o'laroqdialektikaning uchinchi tarixiy shakli materialistik dialektika yaratilgan (XIX asrning ikkinchi yarmi). Unga amalda ilmiy bilishning rivojlanishi yo'l ochib bergan. XIX asrning 40-yillarigacha fanning turli soxalarida yangi kashfiyotlar paydo bo'lgan va ular tabiatni tushuntirishga nisbatan dialektik-materialistik yondashuvni tabiatshunoslik nuxtai nazaridan asoslagan. Ularning orasida uch kashfiyot: fizikada - materiya xarakati turli shakllarining o'zaro aloqasini asoslab bergan energiyaning saqlanish va o'zgarish qonunining aniqlanishi; biologiyada - butun jonli tabiatning (o'simliklar dunyosining xam, xayvonot dunyosining xam) tarkibiy jixatdan yagonaligini yoritib bergan xujayra nazariyasining yaratilishi; rivojlanish g'oyasini jonli tabiatga tatbixan ishlab chiqqan Darvinning evolyusiya nazariyasi aloxida o'rin egallaydi. Bu sharoitda materialistik dialektika borliqning o'xshashi, ya'ni borliqni uning o'ziga mos ravishda fikrlash va bilish imkoniyati sifatida falsafiy tafakkurning fanga ayniqsa mos keluvchi shakliga aylangan. Dialektikaning tarixiy shaklini yaratishda Marks kashf etgan tarixni materialistik tushunish ayniqsa muxim rol o'ynagan. Bu kashfiyot yordamida dialektikaning nafaqat materializm, balki gumanizm bilan xam sintezi amalga oshirilgan. Dialektika insonga bog'lanmasdan, o'z xolicha emas, balki inson xayot faoliyatining konkret-tarixiy muammolari nuqtai nazaridan qarala boshlagan. So'nggi yillarda ayrim tadqiqotchilar Gegelning idealistik dialektikasi va materialistik dialektikani klassik dialektika sifatida tavsiflab, dialektikaning to'rtinchi, noklassik shaklini xam farqlamoqdalar. xozirgi zamon qarb falsafasida dialektikaning ko'rsatilgan shaklining eng muxim elementlari falsafiy mushoxada yuritishning unga xos bo'lgan germevntik usulida namoyon bo'lmoqda. Ammo bu yerda dialektik metod avvalo mazmunni talqin qilish vositasida aniqlash uchun (P.Riker), shuningdek anglab yetilayotgan ob'ektni situtativ taxlil qilish uchun qo'llaniladi. Klassik dialektikaning o'ziga xos xususiyatlari:. Birinchidan, klassik dialektika dunyoni tushunishning shunday bir usuli xisoblanadiki, bunda borliq narsalar va xodisalarning umumiy o'zaro aloqasi, ularning bir-birini taqozo etishi va muttasil o'zgarishi nuqtai nazaridan anglab etiladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, dialektika xar qanday o'zgarish, xar qanday xarakat nazariyasi emas, balki o'zgarishlarning faqat bir shakli - rivojlanish nazariyasi xisoblanadi. Dialektikaning asosiy tushunchalari - Narsa. Kundalik xayotda xar bir insonda muayyan

xayot tajribasi va uning o'zi yashayotgan dunyo xaqidagi umumiy tasavvurlari shakllanadi. Go'daklik chog'idayoq u ayrim narsalarni farqlaydi, ularni ushlab ko'rish va qo'lga olishga xarakat qiladi. Shu

tariqa biz o'zimizni son-sanoqsiz xar xil aloxida narsalar: daraxtlar va baliqlar, uylar va xayvonlar, tog'lar va yulduzlar qurshovida yashayotgandek xis qila boshlaymiz. Falsafiy ma'noda "narsa" - borliqning nisbatan mustaqil va nisbatan barqaror xolda mavjud bo'lgan bir qismidir. Narsa tushunchasida borliq xar qanday xodisasining - u xox tabiat, xox jamiyat, xox inson yoki uning ongi bo'lsin, diskretligi, nisbatan mo'staqilligi va sifat jixatidan aniqligi namoyon bo'ladi. Borliqning bir qismi sifatida narsa uzviy va uzluksiz bo'lib, o'zining yaxlitligi, o'z xolatlari O'zgarishining tadrijiyligi, o'z elementlari ichki aloqalarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Narsa o'zini boshqa narsalar bilan bog'lovchi va ular bilano'zaro ta'sirga kirishish

imkonini beruvchi xossalarining yaxlit majmui bilan tavsiflanadi. Narsaning nisbatan mustaxilligi va nisbatan o'zgarmasligi boshqa narsalar bilan bog'liq bo'lmagan va o'zgarishsiz qoladigan

narsalar mavjud emasligini anglatadi. Shoir ta'biri bilan aytganda, "Dunyoda xamma narsa bir-biri bilan bog'liqdir". Bu aloqaning shoirona tal'ini. Xo'sh, aloqa tushunchasining falsafadagi talqini qanday

Aloqaning umumiyligi shunda namoyon bo'ladiki, unga ob'ektiv dunyoning aksariyat yoki xatto barcha narsalari, xodisalari va jarayonlari bo'ysunadi. qonunning ko'rib chiqilgan belgilari unga mantiqiy ta'rif berish imkonini beradi. qonun - bu moddiy va ma'naviy xodisalarning ularning xarakat va rivojlanish xususiyati va yo'nalishini

belgilovchi ob'ektiv, muxim, zaruriy, barqaror va umumiy aloqasi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, ilmiy adabiyotlarda "qonun" tushunchasidan tashqari "qonuniyat" tushunchasi xam ishlatiladi. Bular ayniy tushunchalar emas. Ular bir tartibli tushunchalardir, chunki

ularda ob'ektiv borliqda mavjud bo'lgan zaruriy, ob'ektiv, umumiy aloqalar aks etadi. Ammo qonuniyat qonunga qaraganda kengroq tushunchadir. qonun muayyan sharoitda o'zini qat'iy va muqarrar

tarzda namoyon etsa, qonuniyat bir qancha qonunlarning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ijtimoiy qodisalarni taxlil qilish chog'ida qiymat qonuni yoki ishlab chiqarish munosabatlari rvoijlanishining muayyan darajasiga ishlab chiqarish kuchlarining muvofiqligi qonunining aniq ko'rinishlari xaqida xam, ob'ektiv qonuniyat sifatidagi jamiyatning faol rivojlanishi xaqida xam gapirish mumkin. Yuqorida keltirilgan ta'rif xamma qonunlarga tegishli. Ammo qonunlar xar xil bo'ladi. Xususan, asosiy va ikkinchi darajali, dinamik va statik qonunlar, tabiat va jamiyat qonunlari, maxsus va umumiy qonunlar farqlanadi. Borliq qonunlari xaqidagi ta'limot sifatidagi dialektikani umumiy (universal) qonunlar qiziqtiradi, chunki ular, birinchidan, faoliyatning barcha soxalariga xos, ya'ni tabiat, jamiyat va bilishda amal qiladi; ikkinchidan, xarakat va rivojlanishning teran

asoslarini yoritib beradi, aniqroq aytganda, rivojlanish nima uchun, qay tarzda, qaysi yo'nalishda yuz beradi, degan muxim savollarga izchil javob beradi.

Dialektika borliqning umumiy qonunlari xaqidagi ta'limot sifatida ob'ektiv dunyo tinimsiz xarakterda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'lishidan kelib chiqadi. Dialektikaning bu xoidasi uning ikkinchi tamoyili - rivojlanish tamoyilida qayd etiladi. Ammo rivojlanishni ko'rish va uning mavjudligini tan olishning o'zi kifoya qilmaydi. "Rivojlanish" tushunchasining mohiyat va mazmuni xaqida aniq tasavvur xosil qilish talab etiladi. "Ayniyat" tushunchasi ziddiyat tarqalishining dastlabki bosqichini anglatadi. Bu bir xillik, narsa, x
odisa, jixatning o'z-o'ziga yoki boshqa narsalar, xodisalar, jixatlarga o'xshashlik munosabati. "Tafovut" - xar xillik, o'z-o'ziga, boshqa narsalar, xodisalar, jixatlarga mos kelmaslik munosabati.

Ziddiyatning vujudga kelishi yagonaning ikkilanishi sifatida, yagonaning o'z-o'zini qarama-qarshiliklarga differensiasiya qilishi sifatida yuz beradi. Ikkilanish chog'ida bir vaqtning o'zida
ayni shu munosabatda qarama-qarshiliklar birligi xam, ularning kurashi xam vujudga keladi. Ziddiyatning shakllanish jarayonida qarama-qarshiliklar kurashi birinchi o'ringa chiqadi va rivojlanishning ichki, teran manbaiga aylanadi. Ziddiyatning o'zida qarama-qarshiliklar xar xil rol o'ynaydi. Faolroq, xarakatchanroq qarama-qarshilik ziddiyatning yetakchi tomoni xisoblanadi. qarama-qarshiliklar kurashi oxir-oqibatda yangi sifat xolatiga olib keladi. Paydo bo'luvchi yangi xodisalar o'zlariga xos bo'lgan yangi ziddiyatlarga ega bo'ladi. Bu ziddiyatlar mazkur xodisalar rivojlanishining xarakatlantiruvchi kuchi xisoblanadi. Ziddiyatlarning rivojlanish jarayoniga yanada chuqurroq kirish uchun ularning tarqalish bosqichlari (fazalari)dan tashqari, ularning xolatlarini xam farqlash zarur. Predmetli-moddiy, "etilgan" ziddiyatning xolati deganda uning qarama-qarshiliklarining amal qilish usuli, "birligi va kurashi"ning namoyon bo'lish xususiyati tushuniladi. Ayni shu xususiyat bu qarama-qarshiliklarning rivojlanish xususiyati va faollik
darajasini, mazkur ziddiyatni yechish xususiyatini belgilaydi. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida bosqichlarni yoki tarqalgan, "etilgan" ziddiyatni tavsiflovchi xolatlarni xam farqlash mumkin.

Me'yor tushunchasida miqdor va sifat xossalarining o'zaro aloqasi aks etadi. Tabiatda kuzatiladigan narsalarning bir xolatdan boshqa
xolatga o'tishi dunyo evolyusiyasining muxim va keng tarqalgan mexanizmlaridan birini aks ettiradi. Me'yor tushunchasi evolyusiya tendensiyalarini aniqlash, turli sistemalarning o'tmishi va kelajagi
xususida gipotezalar tuzish imkonini beradi. Miqdor sifat jixatidan bir jinsli xodisalarning muayyan ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib, u mazkur xodisalarning kattaligini, mavjudlik muddatini va umuman xodisa yoki uning ayrim tomonlari rivojlanishining faollik darajasini tavsiflaydi.

Shunday qilib, narsalar va xodisalar sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'ladi. Ammo narsalar va xodisalarning bu tomonlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud emasdek, ularning biri ikkinchisiga bog'liq emasdek bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin amalda bunday emas. Miqdor va sifat o'rtasida dialektik aloqa mavjud: muayyan sifatni aks ettirmaydigan miqdor mavjud emas va shu bilan bir vaqtda miqdorsiz sifat xam yo'q. Mazkur sifatga qo'shimcha tarzda doim qandaydir emas,

balki muayyan miqdor javob beradi. Biz, masalan, uzunligi Amudaryo ustida qurilgan ko'prikning uzunligiga teng bo'lgan stolni ko'rmaganmiz. Shuningdek oyoqlarining uzunligi 5 m bo'lgan odamni tasavvur qilish xam qiyin. Shunday qilib, xar qanday sifat falsafada me'yor deb ataladigan miqdor chegarasiga ega bo'ladi. Me'yor - bu miqdor va sifatning shunday bir birligiki, bunda muayyan sifat faqat muayyan miqdor bilan bog'liq. Me'yor - bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i xamdir. Miqdorning me'yor doirasida o'zgarishi sifatning o'zgarishiga sabab bo'lmaydi, lekin me'yordan oshilganda narsa o'zining avvalgi mohiyatini yo'qotadi. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bunday o'zaro ta'siriga ko'p sonli faktlarni keltirish mumkin. Masalan, jismning tezligi sekundiga 1000, 2000, 7910 metr bo'lsa, u yerga yiqiladi. Agar jismning tezligi atigi bir birlikka oshirilsa va u sekundiga 1911 metrga yetkazilsa, jism Yerdan ko'tariladi va uning yo'ldoshiga aylanadi. Demak, miqdor o'zgarishlari, agar ular me'yor doirasida yuz bersa, sifatni butunlay o'zgartirmaydi. Biroq, agar bu o'zgarishlar me'yor chegarasidan chetga chiqsa, o'zining muayyan miqdori va o'z me'yoriga ega bo'lgan yangi sifat vujudga keladi. Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi xaqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va xodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni narsaning miqdor va sifat tomonlarining shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga

sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi. Bu qonunga muvofiq rivojlanish bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro bog'langan ikki bosqich - uzluksizlik va uzluklilikning birligi sifatida yuz beradi. Rivojlanishda uzluksizlik - bu juda sust, ko'zga ko'rinmas miqdor o'zgarishlari bosqichi. Rivojlanishda uzluklilik sakrash deb ataladi. Sakrash - bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilish.

Nima uchun bu takrorlanib turishlik muqarrarGap shundaki, inkor ziddiyat bilan uzviy bog'liq, u mazkur ziddiyatning yechilishi bilan belgilanadi. O'ziga xos ziddiyat bilan vujudga kelgan xar qanday yangi narsani olaylik. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida narsa o'zining qarama-qarshiligiga aylanadi. Ammo inkorning mazkur bosqichida

dastlabki narsada mujassamlashgan ziddiyat faqat qisman yechiladi. Bu to'liqsizlik narsa o'zini inkor qilishda davom etishini belgilaydi. Birinchi inkor o'rniga ikkinchi inkor keladi va ikkinchinarsaga qarama-qarshi bo'lgan yangi, uchinchi narsa vujudga keladi, u ikkinchi narsaning inkori, ya'ni birinchi narsaning inkorining inkori xisoblanadi. Ikkinchi inkor bosqichida birinchi narsaga xos bo'lgan ziddiyat to'la yechiladi. Qo'sh inkor natijasida, dastlabki nuqtaga qaytilishi bilan

rivojlanishning yuqoriroq darajasiga erishiladi, rivojlanishning boshlang'ich, lekin boyitilgan shakli tiklanadi. Rivojlanish chizig'i go'yo "spiral o'rami" aylanasi tashkil etadi, lekin uning boshi

oxiri bilan tutashmaydi. Shunday qilib, rivojlanish xarakatning bosqichma-bosqichligi va siklliligi jixatlarini o'zida birlashtiradi.

Bu qoida xam umumiy axamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va xodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi. Inkorni-inkor qonuni - bu shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni yangining eskini dialektik inkor etishlari cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muxim jixatlari yangida saqlanadi va umuman bu jarayon xujumkor, yuksalib boruvchi yo'nalishga ega

bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jixatlari va tomonlari sifat jixatidan yangicha asosda takrorlanadi va ayni xol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki spiralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab yuksalishni belgilaydi. Xarakatning spiralsimonligi rivojlanishning siklliligini aks ettiradi. Dialektikaning asosiy qonunlari yagona rivojlanish jarayonining turli jixatlarini tavsiflab, aloxida-aloxida emas, balki uzviy dialektik birlikda amal qiladi. Masalan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va buning aksi ziddiyatni xam, dialektik inkorni xam o'z ichiga oladi. qarama-qarshiliklar birligi va kurashi miqdor-sifat munosabatlarini va inkorni-inkorni o'z ichiga oladi. Xuddi shuningdek inkor jarayonida yagonaning eski va yangiga ikkilanishi, ularning o'rtasida qarama-qarshilik, shuningdek miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, moddiy dunyoning yagonaligi qonunlar amal qilishining

umumiyligini nazarda tutadi. Ammo shuni e'tiborga olish lozimki, dialektika qonunlari bir vaqtda amal qilganda, ularning xar biri nisbatan mustaqil bo'ladi, zero rivojlanish mohiyatining muayyan jixatini (manba, mexanizm, yo'nalish) aks ettiradi. Rivojlanishning zaruriy sharti sifatida tavsiflanadi: o'z mavjudligining avvalgi shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Inkor xarakatida rivojlanishga monelik qiladigan narsalarning rad etilishi, yo'q qilinishi yuz beradi. Umuman olganda inkor - ob'ektiv jarayon. Masalan, xozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra, kengayib borayotgan plazmani yo'q qilib tashlagan Katta portlashsiz biz yashayotgan Olam, uning galaktikalari, yulduzlari va sayyoralari xam, inson xam bo'lmas edi. Ammo inkorni sof yo'q Bo'lish sifatida jo'n talqin qilishdan extiyot bo'lish lozimligini Gegel xam, boshqa faylasuflar xam qayd etadi. Bunday inkor "bexuda", metafizik inkor deb e'tirof etiladi. U tabiatda xam, jamiyatda xam mavjud. Lekin oddiy yo'q bo'lish jamiyatni ortga uloqtirib tashlaydi, xolos. Vaxolanki, tarix kul tepasida jo'yali bir narsa yuzaga kelishi mushkul. Dialektik inkor rivojlanish omili xisoblanadi, chunki u bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Gegel fikricha, bartaraf etish "ikki xil ma'no kasb etadi: u asrash, saqlab qolishni va ayni vaqtda to'xtatish, chek qo'yishni anglatadi" Gegel talqinida inkor rivojlanish omili sifatida yashash qobiliyatini yo'qotgan narsani yo'q qilish va erishilgan rivojlanishni

saqlashni nazarda tutadi. Masalan, A.Eynshteyn yangi va eski nazariyalarning o'zaro nisbatini shunday tavsiflaydi: "Yangi nazariya... eski nazariya yutuqlarini chetga chiqarib tashlaydi, deb xisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Yangi eski nazariyaning afzalliklarini xam, kamchiliklarini xam namoyon etadi va bizga eski tushunchalarga teranroq nuqtai nazardan baxo berish uchun imkoniyat yaratadi... Biz eski nazariya o'rinli bo'lgan soxada faktlar o'rganilayotganda xar safar undan foydalanishimiz mumkin". Ammo xar qanday xodisa yaxlit bo'lgani bois, bartaraf etish xaqidagi masalaning qo'yilishi abstrakt xususiyat kasb etadi. XIX asr falsafiy ta'limotlarida bartaraf etishning tabiat va tarixdagi ko'rinishlarini erishilgan rivojlanishni o'zgartirilgan xolda saqlash sifatida yoritib, bu tushunchani to'ldiradi. Yangilik va eskilikning ichki ziddiyatlariga chek qo'yish sifatidagi oz-o'zini inkor dialektik inkorning muxim xususiyati bo'lib, bu rivojlanishning xujumkorligini belgilaydi. Inkorni-inkor. "Inkorni-inkor" nima Ayni bir atama bunday ketma-ket qo'llanilishining ma'nosi nimada Inkor kategoriyasi rivojlanayotgan ob'ekt tarixidagi bir laxzanigina tavsiflaydi. Bitta inkor xarakati xzgarish xaysi yo'nalishda yuz berayotgani, oldingi va keyingi voqealar oqimida u qanday axamiyatga ega ekanligini, yuz bergan voqeaning mazmunini aniqlash uchun doim xam imkoniyat yaratavermaydi. Boshqacha aytganda, inkorni-inkor tushunchasi rivojlanish jarayonining muxim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Gegel, shuningdek uning o'tmishdoshlari va izdoshlari ko'rsatib bergan ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqamiz. Birinchidan, inkorni-inkor rivojlanish yo'nalishini ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur xodisa taraqqiyot yoki tanazzul alomati ekanligini bir inkor xarakatining o'zidan aniqlash mushkul. Shu bois, masalan, qabul qilingan muayyan qonun, saylov natijalari va shu kabilar xaqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Ikkinchidan, inkorni-inkor rivojlanish shaklining tavsifi bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Gegelning dialektika tizimida rivojlanish mantiqiy ziddiyatning yuzaga kelishi va uning bartaraf etilishi sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon "tezis - antitezis - sintez" formulasiga muvofiq yuz beradi. Dialektika kontekstida rivojlanishning uch bosqichi ijtimoiy va tabiiy tizimlar rivojlanishining ko'p sonli ssenariylaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ammo Gegel qayd etgan rivojlanishning siklliligi, uning chiziasizligi tabiat va jamiyatda jarayonlar kechishining ancha keng tarqalgan shakli xisoblanadi. Uchinchidan, tabiiy va ijtimoiy sikllarda rivojlanish xam, tanazzul xam bo'lmasligi mumkin: o'zgarish aylanma xarakat qiladi. Inkorni-inkorda rivojlanish quyi bosqichining o'ziga xos xususiyatlari yuqoriroq bosqichda takrorlanishi yuz beradi. Avvalgi xolatlarga qaytish imkoniyati, ya'ni o'tilgan xolatlarning ayrim xossalari rivojlanishning yuqoriroq bosg'ichida takrorlanishi bilish va tarixning rivojlanishini tushunish uchun yz axamiyatini saqlab qoladi. Bu qonun dialektikaning boshqa qonunlarini umumlashtiradi, ularni sintez qiladi.

Xulosalar

Dialektika qonunlari ob'ektiv dunyoning eng muxim aloqalari va munosabatlarini aks ettiradi. Ular birlikda va o'zaro aloqada amal qilib, murakkab serqirra jarayon - ob'ektiv borliq ning rivojlanishini tavsiflaydi. Dialektika qonunlarining amal qilish mexanizmini chuqur bilish va ulardan moxirona foydalanish yanglishish va xatolardan qutqaradi, kishilarning amaliy faoliyatiga yanada izchilroq va samaraliroq tus beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob. Toshkent - 2004.
2. G. Skirbekk, N.Gilye Falsafa tarixi. Toshkent - 2002.
3. Google qidiruv tizimi.